



## BOLALARNI KOMIL INSON QILIB TARBİYALASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Xasanov Qo‘ysin**

*Samarqand viloyati, Urgut tumani,*

*№116-umumta’lim maktabi fransuz tili fani o‘qituvchisi*

*+99899 317 07 49*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bolaning komil inson sifatida shakllanishida biologik va tashqi ijtimoiy muhit omillari ta’sirining uyg‘unligi, bolaning rivojlanishida anomaliya (regress) holatining ruhiy ta’siri yetakchi psixolog va pedagog olimlar hamda Sharq mutafakkir olim-larining qarashlari, fikr-mulohazalari, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda bir necha yillik ish tajribalari asosida yoritilgan.*

**Tayanch so‘z va tushunchalar:** *bolaning biologik omillari, ijtimoiy muhit, bolaning anomaliya (regress) holati, tarixiy tafakkur, ta’lim-tarbiya, bola psixikasi va uning rivojlanishi, inson, shaxs, individuallik, bolada ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.*

**Аннотация:** *Автор, опираясь на взгляды и научно-исследовательские работы ведущих психологов и педагогов – ученых, в том числе и ученых Востока, а также на опыт своей работы, раскрывает влияние важнейших биологических и внешних социальных факторов на аномальное (регрессивное) психическое состояние развития ребенка как всесторонне развитой личности.*

**Ключевые слова и понятия:** *ребенок, воспитание, биологические и психологические факторы, социальная сфера, индивидуальные качества, аномалия (регрессия), историческое мышление, личность.*

**Annotation:** *There is discussed in the article issues of child forming as comprehensively shaped person and prevention of influences of biological and social factors to children’s disability, implementing spiritual influences of psychologist and pedagogic scientists, as well views of East scientific researches and own experiments of author.*

**Keywords:** *child’s biological factors, social condition, child’s disability condition, historic thought, education, bringing up, child’s psychic and its developing, human, person, individual, developing qualification in child.*

### KIRISH

Ushbu masalaga psixologik omil sifati-da qarashda bolalar ruhiyati rivojlanishini o‘rganuvchi va yetakchi amaliyotchi psixologlar-ning ilmiy qarashlari diqqatga sazovor. Jumladan, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, Z.Freyd, D.S.Xoll, P.P.Blonskiy, D.X.Djekson, F.Xolsman, A.N.Leontyev, A.R.Luriya, E.Krechmer, J.Piaje, S.Skribner, K.Goldshteyn, G.S.Sullivan, Ya.Kazanin, X.Verner, B.Kaplan va boshqa ko‘plab psixolog olimlar mazkur muammo yuzasidan ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan qimmatli fikr hamda o‘z mulohazalarini bildirishgan. Shulardan L.S.Vigotskiyning fikricha, bola rivojlanishining psixologik orqada qolish ko‘rinishlaridan biri bola yoshiga nisbatan so‘z tushunchalarini



o‘zlashtira olmasligi yoki harakatlaridagi yoshiga nisbatan nomutanosiblikdir. Bola o‘zining ruhan ichki menligini boshqarish, ya’ni tashqi ta’sir ob’yektiga nisbatan refleksiya vazifasini to‘liq va sifatli bajara olmaydi. Bola shuning natijasida rivojlanishdan orqada qoladi va tashqi hamda ichki harakat ruhiy xususiyatlar shakllanishi ni ta’minlab bera olmaydi, oqibatda bola harakatlarida o‘z tengdoshlariga nisbatan keskin nomutanosibliklar sezila boshlaydi. Ko‘rinib turibdiki, bola shaxsi nafaqat biologik omillar, balki individual hamda ijtimoiy- psixologik xususiyatlarning o‘zaro uyg‘unlikdagi ta’sirida rivojlanadi. Shuni ta’kidlash lo‘zimki, psixologiya sohasida biologik rivojlanishni psixologik rivojlanish omillardan ustun qo‘yuvchi nazariyachilar ham mavjud. Jumladan, biogenetik nazariyachilar va Z.Freyd hamda uning shogirdlari inson faoliyatini boshqaruvchi instinktlarni avloddan avlodga o‘tkazib berilgan asosiy omil – xususiyat, tug‘ma mahsulot, dastlabki ongsiz ehtiyojlarni va mayllarni harakatga keltiruvchi kuch ekanligi ni e’tirof etganlar.

Angliyalik genetik olim Sh.Aurbax bolaning aqliy taraqqiyot darajasi, boladagi maxsus qobiliyat, bolaning individual sifatleri tug‘ma bo‘lib, mana shu oldindan mavjud omillar muhit xususiyatlarini belgilab berishini nazarda tutadi. Avstraliyalik psixolog K.Bauler bolaning nafaqat aqliy taraqqiyoti, balki axloqiy sifat taraqqiyotida ham genetik omilni yetakchi deb hisoblagan bo‘lsa, amerikalik psixolog va pedagog D.Dyui «inson tabiatini o‘zgartirib bo‘lmaydi, irsiyat inson tabiatini belgilaydi», degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan psixolog va pedagoglarning bola shaxsi va uning shakllanishi borasidagi fikrlari, albatta bir tomonlama yondashuvdan iborat bo‘lib, ular perenatal davrida homilaning psixofiziologik holati va unga ta’sir qiluvchi omillar, ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar, ta’lim-tarbiya kabi omillarni hisobga olmag‘anlar. Aslida psixologiya sohasida bir-biriga uyg‘unlik beruvchi, ammo, sifat jihatdan biri ikkinchisidan tubdan farq qiluvchi inson, shaxs va individuallik tushunchalari mavjud. Insonni biologik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, u sut emizuvchilar sinfiga daxldor, biologik jonzot, ontogenetik rivojlanishi evaziga tik yurishi, qo‘llarining mehnat faoliyatga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi va hokozolar uning o‘ziga xosligini bildiradi.

Ijtimoiylashuv jihatidan esa insonning ong bilan qurollanganligi, u orqali borliqni idroki etishi ham mumkinligi nazarda tutiladi. Inson shaxs sifatida jamiyatning faol ong‘li a’zosi, nutqi yordamida o‘z hissiyoti va maylidan kelib chiqib, ma’lum me’yorlar asosida boshqalar bilan taassurotlarini o‘rtoqlasha biluvchi, o‘z ongi bilan boshqalarga ta’sirini o‘tkaza oluvchi ong sohibidir.

### ASOSIY QISM

Yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash, bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. «Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir,...ular 2 milliard kishini tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi shu yoshlarimizning qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq». Shu jihatdan yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifini O‘zbekiston Prezidenti Shavkat



Mirziyoyev 2017 yil 20 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasida ta’kidlab o‘tdi.

Insonning individualligi esa dunyodagi barcha insonlarning betakrorligi, ular har biri xususiyatining o‘ziga xosligi, ular intel-lektual, emosional, irodaviy sifatleri bilan belgilanadi. Shulardan ham ko‘rinib turibdi-ki, inson tug‘ma ravishda tashkil topgan ko‘rish, eshitish, sezish, his qilish, tuyish va boshqa xususiyatlari bilan bir qatorda, hayot sharoitlari va faoliyatlarini ta’lim-tarbiya ta’siri asosida axloqiy va me’yoriy sifatlarga to’yintira boradi. Taniqli rus psixologi S.L.Rubinshteyn ta’biri bilan aytganda, «... shaxs – bu tashqi ta’sirlar yo‘nalishini o‘zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir». Psixologiya sohasida muammoli va turlicha qarashlarga ega bo‘lgan masalalardan yana biri – bu, inson psi-xik taraqqiyotida genetik, tug‘ma, orttirilgan yoki ijtimoiy omillarning qaysi biri yetakchi ekanligi masalasidir. Masalan, bolaning o‘z ota-onasidan meros sifatida o‘zlashtirgan anatomik-fiziologik xususiyatlari qo‘l, oyoq, yuz tuzilishi va boshqalarni ifodalaydi. Psixologik jihatdan uning muhitga moslashuvi, erkin harakat qilishi, narsa va hodisalarni ongida obrazli qilib aks ettirishi umumiy jarayon hisoblanib, uning qanday darajada bajarilishi esa har bir insonda farqlanadi. Chunki, inson tashqi olam bilan munosabatga kirishishda undagi orttirilgan yoki meros sifatida avloddan o‘tgan anatomik anomaliya (regress) (oyoq-qo‘lning kaltaligi, bo‘yning juda pastligi, tana tuzilishining nomutanosibliigi va boshqalar) holati inson psixikasiga, uning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham tashqi muhit bola psixikasining rivojlanishiga yetakchi omil sifatida ta’siri mavjud ekanligini inkor qilib bo‘lmaydi. Yetakchi psixolog olimlar L.S.Vigotskiy, S.Rubinshteyn, A.Leontyev va boshqalar avlod merosi rolini inkor etmagan holda bolaning komil inson bo‘lib shakllanishiga ijtimoiy muhit yetakchi omil sifatida ta’sir ko‘rsatishini e’tirof etishgan.

Psixolog olimlar V.N.Kolbonovskiy, A.R.Luriya va A.N. Mironovlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki<sup>3</sup>, hatto bir tuxum hujayradan bo‘lgan egizaklarda bir xil tabiiy sharoitda, ta’lim metodlariga ko‘ra kombinatorlik, ya’ni ijodiy faoliyatning ma’lum turlarida mutlaqo boshqa-boshqa natijalar olingan. Demak, bolaning komil inson sifatida shakllanishida avloddan-avlodga o‘tuvchi omillar yetakchi, tashqi omillar shunchaki vosita yoki ijtimoiy muhit yetakchi, ota-onadan gen orqali o‘tgan omillar asosiy emas desak, ikkala tushunchada ham xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Ularning o‘zaro teng va mos hamkorligi asosida bolaga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya bera olsak, shundagina bolani komil inson sifatida shakllantira olamiz.

Bolaga to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya, oila va undagi a’zolarining o‘zaro munosabatlari xarakteri, bola muloqotda bo‘ladigan ijtimoiy guruhlar, u tanlagan kasb, bola ichki ruhiy imkoniyatlarining mukammalligi kabi qator ijtimoiy va biologik omillar shaxs bo‘lib shakllanishi, o‘zini-o‘zi anglashi va o‘zgalarga munosabati hamda uning intellektual taraqqiyotiga albatta ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Bu to‘g‘rida ko‘plab Sharq allomalari ham o‘z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Jumladan, Abu Nasr Farobiy o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida inson va uning ruhiyati to‘g‘risida ajoyib mushohada yuritib, inson ruhiyatining taraqqiyoti biologik va muhit omillariga bevosita bog‘liqligi hamda mazkur omillar ta’sirida shakllanishini e’tirof etadi.

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida inson organizmining tuzilishi, undagi fiziologik jarayonlar va ular bilan bevosita bog‘lanishda bo‘lgan ruhiy omillar, ularning inson tanasi-ga ta’siri to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni keltirgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridagi bosh masala komil insonni tarbiya-lash, Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Tuhfatul ahror» va boshqa asarlarida bolani ilmli, ma’rifatli, ta’lim-tarbiyali va kasb- hunarga o‘rgatish haqida fikr yuritilgan bo‘lsa, Alisher Navoiy o‘zining «Xazoyinul-maoniy», «Mahbub-ul qulub» va boshqa asarlarida yetuk, barkamol inson, uning axloqi hamda qobiliyati to‘g‘risida ajoyib fikrlarni bayon etgan. Bundan tashqari, Bobur, Furqat, Bedil, Farg‘oniy, Mashrab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Zavqiy, Avloniy va boshqa ko‘plab mu-tafakkir, yozuvchi, shoir va shoirlarimiz ham o‘z asarlarida yoshlar tarbiyasi, fe’l-atvori, oila-viy hayot masalalari va insonlararo munosabat masalalariga alohida e’tibor qaratishgan. De-mak, ilmiy asoslangan fikrlar va hayot tajri-balari shuni ko‘rsatadiki, agar bola ota-onadan biologik jihatdan sog‘lom, to‘rt muchasi but du-nyoga kelmas ekan (bolada anomaliya (regress) holati kuzatilsa), uni ruhan mutanosiblikdagi va komil inson sifatida shakllantirish yechi-mini topishi mushkul bo‘lgan masala sifatida qolgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolaning ri-vojlantirishiga o‘zining ijobiy yoki salbiy ta’sirini ko‘rsatuvchi omillarga alohida e’tibor qaratish tarbiyachi va o‘qituvchilar hamda ota-onalar zimmasiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar-ni yuklaydi. Ular e’tibor berishlari lozim bo‘lgan shart-sharoitlar va omillar sirasiga quyidagilarni misol sifatida ko‘rsatishimiz mumkin: avlod-dan-avlodga o‘tkazib berilgan bolaning irsiy omillari, oiladagi sog‘lom yoki nosog‘lom muhit, bola uchun tashkil qilingan gi-giyenik yoki nogigiyenik muhit, bola uchun sog‘lom va to‘g‘ri tashkil qilingan yoki nosog‘lom bola yosh davriga nomuvofiq ta’lim-tarbiya muhiti, eko-logik muhit omillari, texnik va texnologik ax-borot xurujlari va hokazolar. Bundan tashqari, bolani komil inson sifatida shakllantirish-da uning har bir yosh davrida ruhiyatiga ta’sir etuvchi o‘ziga xos jismoniy, psixologik yangi-lanishlar, fiziologik o‘zgarishlar, ijtimoiy moslashish kabi murakkab jarayonlar sodir bo‘ladiki, ota-onalar, mahalla faollari va ta’lim maskanlari sohiblari hamkorligida bola-ni to‘g‘ri rivojlantirishga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. - 82 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008 yil.
3. Filofofiya: Ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. A. A. Ivina. — M.: Gardariki, 2004. -640 s.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 20 sentyabr BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi/ Halq so‘zi”, 2017 y, 23 sentyabr №192 (6886).



5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (<https://lex.uz/ru/docs/5044711>).
6. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T., 2006. 142 b.
7. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun. G‘.B.Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2009. 338 b.
8. Qodirov O.S. Yangi O‘zbekistonda tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta’limda istiqbolli izlanishlar. – 2024. № 4, Buxoro – 2024. B. 20-22.
9. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
10. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
11. Кодиров О.С. Социально-психологические проблемы мотивации в зарубежной психологии. // Вестник интегративной психологии. 2023. Выпуск 30 часть 2.- Ярославль – 2024. - С. 170-174.